Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarning huquqiy maqomi va ularni isloq qilishning istiqbollari....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi .....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития .....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati .....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish .....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilqatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах .....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities ....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
Kolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishing asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choraları .....	1181
Xamraulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budget mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'llim sifatini ta'minlash oliv ta'llim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishing manbalari va yo'llari.....	1232
Raxmanov Ilhom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayftidinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiropi va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamatqulov Omonulla Mamayusupov	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



# AGROSANOAT ISHLAB CHIQARISHINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH VA UNING INNOVATSION RIVOJLANISH BILAN O'ZARO BOG'LQLIGI

**Dusmatov Begmuhammad Olimjonovich**

PhD, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,  
"Real iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti v.b.

**Muxtorova Oydin Sayfiddin qizi**

Samarqand Davlat veterinariya meditsinası,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti  
1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada agrosanoat ishlab chiqarish korxonalarini raqobatbardoshlik tushunchasiga uni oshirish yo'llariga, innovatsion salohiyatdan samarali foydalanishga va milliy innovatsion tizimni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birgalikda, agrosanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishda innovatsion rivojlantirish bilan uzviy o'zaro bog'lqligi bo'yicha ilmiy asoslangan tadqiqot takliflari va tavsiyalari berilgan.

**Kalit so'zlar:** Raqobatbardoshlik, innovatsiya, innovatsion tizim, innovatsion muhit, agrosanoat ishlab chiqarishi, mintaqalraqobatbardoshligi, sifat.

**Abstract:** In this article, special attention is paid to the concept of competitiveness of agro-industrial enterprises, ways to improve it, the effective use of innovative potential and the development of the national innovation system. At the same time, scientifically based research proposals and recommendations were given on the relationship of innovative development in the development of agro-industrial production.

**Key words:** competitiveness, innovation, innovation system, innovation environment, agro-industrial production, regional competitiveness, quality.

**Аннотация:** В данной статье особое вниманиеделено понятию конкурентоспособности предприятий агропромышленного производства, путем ее повышения, эффективному использованию инновационного потенциала и развитию национальной инновационной системы. При этом были даны научно обоснованные исследовательские предложения и рекомендации по взаимосвязи инновационного развития в развитии агропромышленного производства.

**Ключевые слова:** конкурентоспособность, инновации, инновационная система, инновационная среда, агропромышленное производство, региональная конкурентоспособность, качество.



## KIRISH

Raqobatbardoshlik – tovar, korxona, sanoat, mintaqa, mamlakat miqyosida shakllanadigan bozor munosabatlardagi asosiy iqtisodiy kategoriyalardan biri bo'lib, umuman olganda, boshqa analoglar bilan raqobatlashish qobiliyati ko'rinishida ifodalanaadi.

O'zbekiston Respublikasining barcha ta'sis etuvchi subyektlari manfaatlari o'zaro yaqinlashib, rivojlanayotgan bozor maydonida qatnashadi, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning samarali biznes va tijorat faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlaydigan eng ishonchli raqobatbardosh pozitsiyalarga ega bo'lgan hudud raqobat muhitini yaratadi. Shu bois, bugungi kunda mintaqalarning ishonchli raqobatbardosh pozitsiyalari va ularning raqobatbardoshligini oshirish mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun muhim shartlar bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, mintaqaning raqobatbardoshligini oshirish nafaqat uning iqtisodiyotini rivojlantirish vositasi, balki o'z xalqining hayot darajasi va sifatini oshirishning muhim omili sifatida ham e'tirof etiladi.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida yuzaga keladigan investitsiyalar uchun hududiy tanlovnii jadalashtirish va aholining talab darajasi o'sishi hududiy raqobatbardoshlikning xarakteri va iqtisodiy mazmunini oshkor qilish bo'yicha talablarni kuchaytiradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Agrosanoat ishlab chiqarishining raqobatbardoshligini oshirish va uning innovatsion rivojlanish bilan o'zaro bog'liqligi mavzusiga doir tadqiqotlarni o'rganish bo'yicha iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan o'zlarining tadqiqotlarida, adabiyotlarida va xalqaro konferensiyalarda qo'yidagicha fikr va muhozalarini keltirib o'tishgan.

V. I. Vidyapina, M. V. Stepanovalarning fikricha mintaqaning raqobatdoshlik pozitsiyasi raqobatbardosh ustunliklari uyg'unligi sifatida tushuniladi, bu esa tegishli raqobatbardosh sohada (tovar va xizmatlar bozori, kapital, investitsiyalar) mintaqa uchun qulay mavqega ega omillar va shartlar bilan belgilanadi<sup>[1]</sup>.

T. G. Morozovoy qo'yidagicha tarif keltirib o'tgan. Mintaqaning iqtisodiy jarayoni sifatida raqobatbardoshligi turli xil sharoitlarda ta'sir ko'rsatadigan murakkab va qarama-qarshilik harakatlarining uyg'unligi hisoblanadi: ishlab chiqarishning omilli sharoitlari (mintaqani xom ashyo bilan ta'minlash, malakali kadrlar, ishlab chiqilgan moddiy va innovatsion infratuzilma); xo'jalik yuritishning umumiyligi sharoitlari (moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, iqtisodiy xavfsizlik, asosiy vositalarning amortizatsiya darajasi va boshqalar); mintaqaning asosiy tarmoqlari mahsulotlariga talab omillari; ijtimoiy; ijtimoiy-madaniy; tashkiliy-huquqiy; innovatsion sharoitlar<sup>[2]</sup>.

Kistanov V. V. o'z tadqiqotlarida muaomoga qo'yidagicha yondashib XX asrning yangi iqtisodiy tendensiyalari bilan bog'liq ravishda hududlarning raqobatbardoshligi mintaqaviy rivojlanishning mustaqil nazariyi va amaliy muammolari sifatida ko'rib chiqgan. Biroq iqtisodchilarining fikriga ko'ra, hozirgi paytda mualliflar zamonaviy mintaqaviy tadqiqotlar tendensiyalari va metodik tushunchalarining turliligining sabablaridan biri bo'lgan mintaqalararo raqobat va raqobatbardoshlikning umume'tirof etilgan nazariyasiga ega emaslar<sup>[3]</sup>.

D. Sepikni fikriga ko'ra, quyidagi omillar mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun asosiy kuchdir:

- klasterlar; inson kapitali;
- mavjud bo'lgan korxonalar va tarmoqlar;
- mintaqaviy innovatsion tizimlar;
- boshqaruva va institutsional salohiyat;
- korxonalarning sanoat tuzilishi va turi;
- infratuzilma;
- viloyatlarning urbanizatsiya darajasi va ishlab chiqarishning integratsiyalashuv darajasi;
- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning xalqaro aloqasi va tabiat;
- geografik joylashuv;
- investitsiyalarning jozibadorligi<sup>[4]</sup>.



Kofner Yu. Yu o‘z ilmiy maqolasida masalaga qo‘yidagicha tarif berib o‘tgan “Yangi iqtisodiyot”ning jadal rivojlanishi, kapital bozorlari va yangi texnologiyalarning o‘zaro aloqlari o‘sib borishi, yangi texnologiyalarning harakatlanish darajasini kuchaytirish, bilim, texnologiya, mahsulotlar, xizmatlarni yaratish va ulardan foydalanishning keng ko‘lamliligi innovatsion tizimlarning infratuzilmasi mamlakatlarning raqobatbardosh rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qilishini shartlab berdi [5].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Agrosanoat ishlab chiqarishining raqobatbardoshligini oshirish va uning innovatsion rivojlanish bilan o‘zaro bog‘liqligi mavzusidagi maqolada ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish, qiyosiy solishtirish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrash, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqalarning raqobatbardoshligi muammosiga katta metodologik ahamiyatga ega va ilmiy qiziqish bilan bugungi kunning ko‘plab muammolari hal etilmagan.

Birinchidan, mamlakat iqtisodiyoti uchun nisbatan yangi bo‘lgan “mintaqaning raqobatbardoshligi” va “tarmoq raqobatbardoshligi” konsepsiyanlarni aniqlash masalasi yetarlicha rivojlangan emas va uning ilmiy anglashuvi iqtisodiy rivojlanishning innovatsion modeliga o‘tish davrida eng murakkab jarayonlarni davom ettirish sharoitida shakllanmoqda. Shu bilan birga, bu tushunchalarning ilmiy mazmunda talqin qilish alohida ahamiyat kasb etadi va ularning mohiyatining tadqiq qilinishi juda muhimdir.

Raqobatbardoshlikni oshirishning zamonaviy nazariyalari muayyan tarmoq va uning xo‘jalik yurituvchi subyektlari faoliyatini shart-sharoitlarni muntazam hisobga olish, ular oldida turgan vazifalarini anglab yetishga asoslanadi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘sish strategiyasining tarmoqning barqarorligi, talablarga javob beruvchi iqtisodiy natijalar va uning iqtisodiy o‘sishini ta’minlovchi variantini tanlashni belgilab beruvchi turli-tuman rivojlanish nazariyalarining paydo bo‘lishiga olib keladi.

Har bir tarmoq raqobatbardoshlikni oshirishning tez o‘zgaruvchan bozor muhiti sharoitida samarali rivojlanishga yordam beruvchi strategiyasini ishlab chiqishi lozim. Hozirgi vaqtida o‘zgarishlar tezligi shunchalik yuqoriki, ishlamalarning an‘anaviy usullari takomillashtirishni talab etadi. Tarmoqqa hozirgi va kelgusi o‘zgarishlarga moslashish imkonini beruvchi moslashuvchan tizimni shakllantirish imkoniyatini taqdim etuvchi usullar zarur.

Metodologik nuqtayi nazardan bu usullardan uzoq muddatli keng chora-tadbir yoki yondashuvlarni belgilash uchun foydalaniladi, bu tarmoq xo‘jalik yurituvchi subyektlari raqobatbardoshligining o‘sishini boshqarishning konseptual yo‘nalishlarida rivojlanтирib beradi

Ma’lumki, agrosanoat ishlab chiqarishning raqobatbardoshligi murakkab iqtisodiy kategoriyanı o‘zida namoyon etadi. Korxonaning raqobatbardoshligi muammosiga bag‘ishlangan iqtisodiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida biz uning quyidagi asosiy ta’rifini ajrattdik.

Shunday qilib, agrosanoat ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish ishlab chiqarishning cheklangan omillaridan oqilona foydalanish yo‘li bilan oldinga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan hamda uning ichki va tashqi xatti-harakatni belgilab beruvchi korxona faoliyati va rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha o‘zaro kelishilgan qarorlar va harakatlar yig‘indisini o‘zida namoyon etadi.

“Mintaqaning raqobatbardoshligi” konsepsiyasining turli ta’riflarini qiyosiy tahlil qilish natijalari shuni ta’kidlash mumkinki, mualliflar formulalar ichida ko‘pincha quyidagi kategoriyanı ajratib ko‘rsatadilar: masalan, qobiliyat:

- viloyat aholisi uchun yuqori turmush darajasiga erishish;
- aholi jon boshiga nisbatan yalpi hududiy mahsulotga erishish;
- mintaqaning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish;
- mintaqaviy xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining muayyan sohalarida raqobatbardosh ustunliklarini ta’milash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirish;
- bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish.

Mintaqadagi tovar ishlab chiqaruvchilarga raqobatbardosh afzalliliklarni aniqlash tadqiqotga bag‘ishlangan bo‘lib, unda besh turdagи afzalliliklar mavjud: resurs, texnologiya, innovatsion, global va madaniy. Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchining raqobatdosh afzalligi – bu butunlay qiymati (umuman, qiymati), uning ishtiropi iqtisodiy



sodiy ayirboshlashda iste'molchi ta'sirini yaratish va daromad olish imkonini beradi. Ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardosh ustunliklari nafaqat tabiiy resurslarning mavjudligi, balki ularning arzonligi va ulardan foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar, transport-kommunikatsiya turlariga, infratuzilmaga qulaylik yaratish, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning narx ko'rsatkichlari mamlakat hukumati tomonidan yaratilgan soliq va byurokratik rejimlar, shuningdek, past foiz stavkalari, ya'ni arzon sarmoya.

Global chaqiriqlarga javob tariqasida yuzaga kelgan aynan mana shu keskin jarayonlarsiz boshlang'ich innovatsiya bo'g'lnlari, innovatsiya faoliyati subyekt va obyektlarini yagona yaxlit infratuzilmasi tizimga uyg'unlashtirib bo'lmas edi. Dastlabki shart-sharoitlar sifatida: tizimli ta'lim (texnologik zanjirlar, malakali kadrlar zaxirasi va h.k.), tarmoqli texnologiyalar, yagona axborot makoni, yagona iqtisodiy va huquqiy muhit, milliy miqyosga ega yirik loyihalar, davlatning integratsiyalovchi roli, innovatsion xizmatlar va boshqalar shakllandi. Biroq bunday bog'lovchi, tizim tashkil etuvchi omillar faqat quyidagi shart-sharoitlar mayjud bo'lsagina, samarali faoliyat yurita oladi:

- innovatsiya jarayonini yo'lga qo'yish uchun yetarlicha texnologik va intellektual salohiyat;
- innovatsiya tarmoqlari ishtirokchilari soni, shu jumladan, unga yangi ijtimoiy guruhlarning jalb etilishi natijasida, muntazam o'sib borishi;
- innovatsiyali rivojlanishga yo'naltirilgan institutsional tizim (ham rasmiy, ham norasmiy unsurlarni o'z ichiga olgan holda);
- ko'p sonli xo'jalik yurituvchi subyektlar, jismoniy shaxslar va umuman milliy iqtisodiyot tomonidan innovatsiyalarga talabning ortishi;
- innovatsiysiya tizimini yetarli darajada moliyalashtirish imkoniyatiga ega iqtisodiy rivojlanish (YIM, xususan aholi jon boshiga).

Mana shu barcha talablarning bajarilishi, dastlabki tizimli shart-sharoitlarning mavjudligi, innovatsiyali rivojlanish muammolarini nazariy jihatdan tushunib yetish milliy innovatsion tizimning milliy chegaralar doirasida, ya'ni aynan yetakchi tarmoqlar, kichik va yirik korxonalar, universitetlar, laboratoriya, agroparklar, inkubatorlar va innovatsion jarayonlarni ta'minlab beruvchi moliyaviy va ijtimoiy tavsifga ega institutlar majmuyi doirasida ilmiy bilim va texnologiyalarni yaratish hamda tijoratlashtirish bilan band uzviy bog'liq tashkilotlar (tuzilmalar) majmuyi sifatida yuzaga kelishi va rivojlanishiga yordam berdi.


Milliy innovatsion tizim mafkurasi Yevropa Ittifoqiga (EI) a'zo mamlakatlarning katta qismida, AQSh va Yaponiyada ayniqsa, keng tarqalgan. Biroq hozirgi vaqtgacha MIT(Milliy innovatsion tizim) tushunchasining yagona ta'rifi mayjud emas. MITni shakllantirishga yagona bir nazariy va uslubiy yondashuvlar ham ishlab chiqilmagan. Shuningdek, turli mamlakatlarda milliy innovatsion tizim (MIT) oldiga turli maqsadlar qo'yilishi ham mumkin. Masalan, Fransiyada MIT maqsadi iqtisodiyotning yuqori texnologik tarmoqlarida qo'shimcha ish o'rinalarini yaratishdan, Germaniyada esa – raqobatbardosh texnologiyalarni rivojlantirishdan iborat.

Har bir muayyan holatda MITni rivojlantirish strategiyasi davlat tomonidan o'tkazilayotgan makroiqtisodiy siyosat, normativ-huquqiy ta'minot, davlatning bevosita va bilvosita aralashuvi shakllari, ilmiy-texnologik va sanoat salohiyati holati, ichki tovar bozorlari, mehnat bozorlari hamda tarixiy va madaniy an'ana-qadriyatlar va xususiyatlar orqali belgilanadi.

MIT asosini yaratuvchi milliy iqtisodiyotning tayanch bo'la oladigan sohalari qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- bilimlarning yuzaga kelishi (fan va boshqa sohalarda uning bo'g'lnlari);
- bilimlarni ommalashtirish va keng miqyoslarda qo'llash (tadqiqot va ishlanmalar, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish);
- yangiliklarni tijoratlashtirish (fan-texnika mahsulotlar bozori, bozor institutlari);
- ta'lim tizimi va kadrlarni innovatsion tadbirkorlikga tayyorlash;
- innovatsion xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar, shu jumladan, moliyaviy ta'minot;
- boshqaruv va tartibga solish.

Mazkur sohalarning korxona va tashkilotlari, uning quyi tizimlari, bo'g'lnlari va ularning o'zaro aloqalari, ya'ni milliy innovatsion tizim tuzilmasini tashkil etgan holda, innovatsionlik va kreativlik darajasiga bog'liq ravishda to'liq yoki qisman MIT tarkibiga kiritiladi.



1-rasm: Rivojlangan mamlakatlarda milliy innovatsion tizimning tuzilishi

1-rasmda rivojlangan mamlakatlardagi MIT modellarining o'ziga xos jihatlarini umumlashtiruvchi tuzilmaning shartli sxemasi keltirilgan.

Qayd etib o'tilgan elementlarning o'zaro munosabatlarini tavsiflab beruvchi mazkur model xususiy (tadbirkorlik) sektorning roli yirik korporatsiyalarning va fan sig'imi yuqori kichik firmalarning ilmiy markazlaridagi xususiy tadqiqotlar va ishlanmalar asosida texnologiyalar yaratish hamda innovatsiyalarni bozor maqsadlarida o'zlashtirishdan; davlatning roli esa – fundamental bilimlarni (universitetlarda) va yuqori texnologiyalar majmuyini qaror toptirishda, shuningdek, innovatsiya faoliyat uchun xizmat ko'rsatish infratuzilmalarini hamda maqbul institutsional muhitni yaratib berishdan iborat ekanini ko'rsatadi.

Mana shu umumi model doirasida MITning milliy xususiyatlari shakllanadi. Ular aytilib o'tilgan vazifalarning bajarilishida davlatning va xususiy sektorning tutgan o'rni, fundamental, amaliy tadqiqot va ishlanmalar nisbatida yirik va kichik biznesning roli, innovatsion faoliyat tarmoq va mintaqaviy tuzilmalarining rivojlanish dinamikasi orqali namoyon bo'ladi.

Innovatsion xizmat ko'rsatish infratuzilmasi MIT faoliyatiga faol ta'sir ko'rsatadi. Rivojlangan mamlakatlardagi innovatsion jarayonlarning tahlilidan ma'lum bo'ldiki, keng innovatsion faoliyat aynan xizmat ko'rsatish infratuzilmasini samarali faoliyati bilan uzviy ravishda amalga oshirilar ekan.

Tadqiqotda innovatsion infratuzilma deganda innovatsion mahsulotlar va xizmatlar bozorini to'laqonli faoliyat yuritishini ta'minlaydigan subyektlar, resurslar va vositalar, moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-uslubiy, huquqiy, axborot, konsultatsion xizmatlar majmuasini tushunish mumkin.

Zamonaviy sharoitlarda innovatsion xizmatlar bozori deyarli barcha hududlarda mavjud bo'lishi ko'zda tutiladi, shu bilan birga, odatda innovatsion xizmatlar ilg'or texnologiyalar, texnika va uskunalar, yondashuvlarni o'zida mujassamlashtirgani sababli ular innovatsiyalarga to'lov qobiliyatiga ega talab yuqori bo'lgan muhitda kengroq tarkib topadi. Shu nuqtayi nazardan muallifning fikricha turli hududlarda innovatsion xizmatlar bozorining rivojlanganlik darajasi ko'p hollarda mazkur hudud iqtisodiyoti, xususan, uning agrosanoat sektorining rivojlanganlik darajasiga mutanosib ekanligi kuzatiladi.

Hududdagi agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion infratuzilmaning rivojlanish darajasi va samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan zarur infratuzilmaning yaratilganligi bilan bog'liq. Tadqiqotda innovatsion xizmatlar infratuzilmasi deganda innovatsiya mahsulotlar va xizmatlar bozorini to'laqonli faoliyat yuritishini ta'minlaydigan subyektlar, resurslar va vositalar, moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-uslubiy, huquqiy, axborot, konsultatsion xizmatlar majmuasini tushunilishi asoslangan.




Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar agrosanoat ishlab chiqarishi raqobatbardoshligini mustahkamlash, eksport hajmini barqaror oshirish va uning tarkibida ijobiy o'zgarishlarga erishishda eng muhim omilga aylandi.

Bunda quyidaqilar muhim ahamiyatqa ega bo'ldi:

- mazkur yillar davomida agrosanoat ishlab chiqarishida tayyor mahsulotlar hamda oraliq (yarim tayyor) mahsulotlar hajmining ko'payishi hisobiga eksport tarkibi o'zgardi;
  - oziq-ovqat tovarlari eksportining yuqori sur'atlarda o'sishi kuzatildi, unda meva-sabzavot mahsulotlarini ulushi katta bo'ldi, shuningdek, to'qimachilik mahsulotlarini chetga chiqarish hajmi ortib bormoqda;
  - agrosanoat ishlab chiqarishi xo'jalik yurituvchi subyektlari eksport qiluvchi tovarlari ro'yxatida yangi tur-dagi mahsulotlar – turli oziq-ovqat mahsulotlari konservalari, qadoqlashtirilgan quruq mevalar, vinochilik va boshqa ko'plab turdaqi mahsulotlar yuzaga kela boshladи.

Hozirgi sharoitda agrosanoat ishlab chiqarishi innovatsiya jarayonlari muayyan hududlarda va turli tar-moqlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tahlliilar agrosanoat ishlab chiqarishini innovatsion rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash va tasniflash imkonini berdi (2-rasm).



**2-rasm:** Agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion infratuzilmaning tarkibiy tarkibiy tuzilmasi

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa ya taklif sifatida shuni aytishimiz mumkinki:

1. Innovatsion faoliyatni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash vositalari tizimini shakllantirish muvofiq institutsional bazani yaratish, shuningdek, mintaqaga iqtisodiyoti faoliyatini qo'llab-quvvatlash sohasida davlat siyosatini joriy qilishda ko'maklashuvchi infratuzilmalarni shakllantirish yo'li bilan amalga oshirilishi ko'rsatildi.
  2. Agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion xizmatlarning rivojlanish darajasi va samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan zarur infratuzilmaning yaratilganligi bilan bog'liq. Tadqiqotda innovatsion xizmatlarning infratuzilmasi deganda innovatsiya mahsulotlar va xizmatlar bozorini to'laqonli faoliyat yuritishini ta'minlaydigan subyektlar, resurslar va vositalar, moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-uslubiy, huquqiy, axborot, konsultatsion xizmatlar majmuasi tushunilishi asoslanqan.



3. Agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion infratuzilmani samarali faoliyat yuritishi uchun muhim shartlaridan yana biri innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni iste'molchilarga yetib borishini ta'minlashga xizmat qiladigan innovatsion tizimni mavjudligi hamda samarali faoliyat yuritishidan iboratligi asoslandi.

Bunday sharoitda agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion jarayonlarni tartibga solishda davlatning roli muqarrar bo'lib qolmoqda. Jahon tajribasi va amaliyoti shuni ko'rsatadi, agrosanoat majmuyida barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun uni to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita boshqarish orqali davlatning innovatsion va investitsions faoliyat jarayonlarida rolini faollashtirish lozim.

Shunday qilib, innovatsion jarayonlar uchun yaratilgan imkoniyatlar ta'siri ostida agrar ishlab chiqarishning raqobatbardoshligi, o'z navbatida, ayrim hududlarning iqtisodiy rivojlanish holati va istiqboliga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda innovatsion faoliyat agrosanoat ishlab chiqarishi va mintaqaviy rivojlanishning ajralmas qismiga aylanib bormoqda va buning natijasida iqtisodiy munosabatlarning yangi mexanizmlari shakllanmoqda.

**Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Видяпинав. И.М. В. Степанова. Региональная экономика. – М.: ИНФРА.–М,2007. 344с.
2. Т. Г. Морозовой. Региональная экономика. / Под ред. –М.: ЮНИТК. 2008.
3. Кистанов В. В. Региональная экономика России. –М.: Финансы и статистика, – 2004.с.342
4. Сепик Д. Индикаторы конкурентоспособности регионов: Европейский подход // Регион: экономика и социология. – 2005., с.234.
5. Кофнер Ю. Ю. Становление новой экономики в России-зарубежный опыт и национальная стратегия. Патент-Евразия № 2(3), 2012.

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

